

SOMONIYLAR DAVLATIDA SUD-HUQUQ TIZIMI VA YER EGALIGI
SHAKLI

Usmonqulova Maftuna Sharofiddin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU

Tarix fakulteti kechgi bo'lim

401-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, dots.

Yakobjanov J.J

Annotatsiya: Ushbu maqolada Somoniylar davrida huquqiy tizim va yer egaligi munosabatlari, mamlakatning ijtimoiy hayotiga bog'liq bo'lgan jarayonlarga oid ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Sud boshqaruvi, huquqiy normalar, islom huquqi, qozikalon, qozilar, mufti, raislar, xazinatul-fiqh, muqto yoki iqtodor, barzikor, qo'shchilar, mulki sultoniy, mulk yerlari, mulki xos, vaqf yerlari, jamoa yerlari, mulki xiroj.

Abstract: This article shows the legal system and land ownership relations during the Somonites period, the processes related to the social life of the country.

Keywords: Judiciary, legal norms, Islamic law, qazikalon, judges, mufti, chairmen, treasury of jurisprudence, mukta or iqtador, barzikor, partners, sultan's property, proprietary land, private property, waqf land, community land, property.

Абстрактный: В данной статье представлены правовая система и отношения собственности на землю, процессы, связанные с общественной жизнью страны, в период сомонитов.

Ключевые слова: Судебная администрация, правовые нормы, исламское право, казикалон, судьи, муфтий, председатели, сокровищница фикха, мукта или иктадор, барзикор, совладельцы, султанская собственность, земли в собственности, частная собственность, земли вакфа, общинные земли, собственность, налог.

Somoniylar davlati IX asr boshlarida shakllanishida ilk davrida davlatning sud-huquq tizimi va davlat yer egaligi tizimi ham shakllantirildi. Ulkan va qudratli davlatni o'ziga xos huquqiy tizimi shakllangan edi. U o'zidan oldingi, jumladan, islomga qadar mavjud bo'lgan huquqiy normalar va institutlarni qabul qilgan. "Avesto"ning ko'pgina qonun va qoidalarini ham Somoniylar davlatida harakatda bo'lganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, bu davrda Sosoniylar qonunnomasi, Bobil Talmudi va Ishoboxta qonunnomasi normalari ham amalda bo'lgan. Somoniylar davlatida islom dini davlat dini sifatida tan olinib, islom huquqi huquqiy tizimda hukmron mavqeni egallagan. Shunday qilib, Somoniylar davlatida huquq tizimini shakllanishi va rivojlanishida quydagilar manba bo'lib

xizmat qiladi : Markaziy Osiyoning islomga qadar huquqiy normalari va institutlari; Somoniy tomonidan bosib olingan turli mintaqalarda mavjud bo‘lgan huquqiy normalar va institutlar; Markaziy Osiyo xalqlarining hamda ushbu imperiyaga ko‘chib kelib o‘rnashgan boshqa xalqlarning o‘zaro odatlari va an‘analari; mazkur xalqlarning bir-biridan farq qiluvchi diniy normalari; yuqoridagi xalqlar va davlatlarning siyosiy an‘analari; islom huquqi; Somoniylar davlati hukmdorlarining ulamolar, shuningdek mahalliy hokimlar, raislar va boshqa ma‘muriy-huquqiy birliklarning mansabdor shaxslari bilan birgalikdagi huquq ijodkorlik faoliyati; sud-boshqaruv amaliyoti shular jumlasidandir². Yuqorida aytib o‘tilganidek, islom huquqi Somoniylar davlati huquqiy tizimida hukmron bo‘lganligi uchun fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi va sud ishlarini yuritilishi, umuman olganda shariatga asoslangan edi. Shariat bo‘yicha fuqarolik huquqi munosabatlari batafsil tartibga solinadi. Fuqarolik huquqiy munosabatlarning subyekti jismoniy shaxslar bo‘lishi mumkin. Shariat yuridik shaxslarning huquqiy holatini alohida tarzda ko‘rib chiqmaydi. Jismoniy shaxslar tomonidan qilingan fuqarolik-huquqiy harakat qonuniy (halol) va yo‘l qo‘yilgan (joiz) yoki qonunsiz, yo‘l qo‘yilmagan (harom) bo‘lishi mumkin. Harakat, shuningdek, shariat nuqtayi nazaridan maqtovgga loyiq (mustahib) va tanbehli (makruh), majburiy va majburiy bo‘lmagan kabi turlarga bo‘linadi. Jismoniy shaxslarning layoqatligiga jinsi, tabaqasi, mulkiy ahvoli, ayniqsa e‘tiqodi ta’sir etadi. To‘liq darajadagi huquq layoqatiga va muomala layoqatiga mulkdor musulmon erkak kishilar, hukmron tabaqa vakillari ega bo‘lgan. Huquqiy layoqat tug‘ilishdan boshlab, meros masalalarida esa tug‘ilmasdan ham avval vujudga kelgan va o‘lim bilan yoki bedarak yo‘qolish bilan tugagan. Yosh bolalar, 15 yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlar, shuningdek, ruhiy kasallar va aqli zaiflar muomala layoqatiga ega emas deb hisoblangan. Fuqarolik huquqining obyektini ashyolar, mulkiy, shuningdek, mulkiy xarakterga ega bo‘lmagan shaxsiy huquq (masalan, ismga ega bo‘lish huquqi) tashkil etgan. Ashyolar harakatda va harakatsiz (ko‘chmas), almashtiriladigan va almashtirilmaydigan, nasliy va nasliy bo‘lmagan, bo‘linadigan va bo‘linmaydigan, iste’molga yo‘l qo‘yilgan va iste’molga yo‘l qo‘yilmaydigan, muomaladan olingan va muomaladan olinmagan bo‘lishi mumkin. Somoniylar davlatidagi sud-huquq tizimi o‘z davri uchun huquqiy davlatchilikni shakllanishi va davlatdagi qonun qoidalar shariat qonunlari jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etar edi.³

Somoniylar davlatida sud ishlari shariat qonun qoidalariga asoslangan edi. Sud ishlari qozilik devoni tomonidan boshqarilgan. Sud jarayoni qozikalon, qozilar, mufti, raislar tarafidan amalga oshirilgan. Viloyat qozilari qozikalonga bo‘ysungan. Og‘ir jinoyat qilganlar o‘limga yoki uzoq muddat qamoq jazosiga mahkum etilgan. Sud tizimida olib borilgan ishlarni ko‘rib chiqishda dinning katta lavozimdagi mansabdorlari ishtirokida olib borilgan. Somoniylar davlatida huquqiy tizimida hukumdorning ham ishtirokini korishimiz mumkin. Hukumdor ishtirokida o‘tkazilgan sud jarayonida xalqaro darajadagi ya’ni chet el furoqarolari tarafidan amlaga oshirgan jinoyatlarni ko‘rishda; viloyat hokimlari

² Наршахий А. Бухоро Тарихи. –Т.: Фан, 1996. –Б. 120

³ Нейматов Н. Давлати Сомониён. –Ирфон. 1999. Б. 328.

tomonidan sodir qilingan jinoyatlar ko`rilgan edi; hukumdor tomonidan yana bir sud jarayoni bu urush paytida askarlar orasida sodir bo`lgan jinoyatlarni ham sud qilish jarayonida hukumdor ishtirokini ko`rishimiz mumkin edi .

Viloyatlarda og`ir jinoyat sodir etganlar qozikalon va amir hukmiga havola etilgan. O`lim jazosini ibrat uchun Buxoro Registonida, ko`pchilik oldida ijro etishgan. O`g`irlik qilganlar muhtasib va uning mirshablari tomonidan ushlanib, aholi to`plangan yoki bozor joylarda qo`li chopib tashlangan. Yengilroq gunoh qilganlarga tan jazosi (kaltak, darra) berilgan yoki jarima solingan. Somoniylar davlatida islomdagi huquqiy munosabatlarni mahalliy xalq urf-odatlariga moslashtirishga yordam beruvchi asarlar yaratilgan. Ulardan qozilik mahkamalari yordamchi qo`llanma tarzida foydalanganlar. Masalan, faqih Abulays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad Samarqandiyning (911-985-yillar) “Xazinatul-fiqh” (Musulmonchilik qonun-qoidalari xazinasini) asarini ko`rsatish mumkin.⁴

Somoniylar davlati mustaqillikka erishuvi oqibatida uning xo`jalik hayotida ham chuqur o`zgarishlar yuz berdi. Mamlakat xo`jalik hayotida “iqto” mulklarining o`rni katta edi. Bu mulk egalari “muqto” yoki “iqtodor” deb yuritilgan. Iqtodorlar bu mulklarni davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun yer va suv shaklida olganlar. Iqto shaklida hatto viloyatlar, vohalar, shahar va tumanlar hadya qilingan. Somoniylar davrida xo`jalikning barcha sohalari rivoj topdi. Somoniylar davrida katta yer egalari - dehqonlarning nufuzi ortdi. Ko`pincha bir dehqon qo`lida katta yer maydonlari, butun bir viloyat bo`lgan. Ziroat bilan shug`ullanuvchi ziroatkor kadivar deyilgan. Yirik yer egasi yerida ishlaydigan ijarachilar “barzikor” yoki “qo`shchilar” deb atalgan. Somoniylar davlatidagi yer egaligi va uning taqsimot shakllari, yerga ishlov berish jarayoni O`rta Osiyo iqlim sharoitiga ko`ra amalga oshirilgan edi . Yerga ishlov berish va egalik shakllari Arab xalifaligi yer egali shakli bilan o`xshash edi. Bundan ko`rinadiki Somoniylar davlatidagi yerga egalik shakllarini Arab xalifaligi bilan deyarli bir shaklda ekani ko`rimiz mumkin.⁵

Somoniylar davlati yer egaligiga asoslanganligi tufayli undagi mulkiy bo`linish ham turli xil shakllarga ega bo`lgan.

Bular quyidagilardir:

1. Mulki sultoniy-sulton(amir)ga tegishli yerlar. Undan tushadigan daromadlar davlat xazinasiga tushardi. Bu juda katta yer-mulklarni, shu jumladan, ko`p sonli dehqonlar mulklarini ham o`z ichiga olgan.

2. Mulk yerlari-xususiy mulk yerlari. U asosan hukmron sulola vakillari hamda yuqori tabaqa namoyondalari ixtiyoridagi mulklar edi.

3. Vaqf yerlari -bu masjid, madrasa va boshqa diniy muassasalar tasarrufiga berilgan yerlar. Ulardan keladigan barcha daromadlar musulmon ruhoniylari manfaati uchun sarf qilinardi.

⁴ Ибн ал-Асир. Ал –Камил фит тарих. –Т.: Цюрих, 2005. –Б. 604.

⁵ Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –Т.: Sharq. 2010. B.

4. Mulki xos -oliy martabali ruhoniylar va sayyidlar qo‘l ostidagi yerlar. Bu yer egalari davlatga ko‘pincha hosilning 1/10 hisobida faqat ushr to‘lagan. Boshqa soliqlardan esa hukmdor tomonidan ozod etilgan.

5. Jamoa yerlari –qishloq jamoalari tasarrufidagi yer maydonlari. Bu yerlar asosan lalmikor, yaylov va tog‘oldi yerlaridan iborat bo‘lgan.

Somoniylar davrida mamlakat tasarrufidagi barcha yerlar olinadigan soliqlar miqdoriga qarab ikki turga bo‘lingan:

1. Mulki xiroj -xiroj yerlar, ya‘ni soliq olinadigan yerlar. Dehqonlar yashagan yerlar, ya‘ni “mulki sultoni” va “mulklar” shu toifaga kirgan. Bu yerlarda ishlovchilar hosilning 1/3 miqdorini davlatga soliq tariqasida topshirgan.

2. Soliq to‘lashdan qisman yoki butunlay ozod etilgan yerlar. Bunday yerlar oliy musulmon ruhoniylari hamda payg‘ambar avlodidan bo‘lgan sayyidlar mulki hisoblangan. Somoniylar davrida ko‘pchilik dehqonlar ommasi turli xil soliq va to‘lovlardan tashqari davlat tomonidan ko‘plab majburiyatlarni o‘tashga ham jalb etilgan. Suv inshootlarini tozalash, ta‘mirlash, to‘g‘onlar, ko‘priklar, yo‘llar qurish shular jumlasidan edi. Somoniylar davlatida yer egakigidan olinadigan soliqlarni olish tartibi xuddi mana shunday kesimda olib borilgan. Soliqlarni yig‘ish tartibi qishloq oqsoqoli, tuman hokimi, viloyat hokimi tartibida soliqlarni yig‘ib hukmdor xazinasiga yuborish bilan shug‘ullangan. Yerga egalik shakli va yer egaligidan olinadigan soliq shakllari Somoniylar davlatining asosiy tizimlaridan edi.⁶

Somoniylar davlati IX–X asrlarda shakllangan musulmon davlatlar ichida eng rivojlangan huquqiy tizimlardan biriga ega edi. Ularning huquqiy asoslari asosan islom shariati, ya‘ni Qur‘on, Hadis, Ijmo‘ va Qiyosga tayanardi. Bu manbalar fiqh ilmi orqali amaliyotga tatbiq etilgan. Ismoil Somoniy davrida Hanafiy mazhabi davlat miqyosida rasmiy e‘tirof etildi. Shu bois Buxoro, Samarqand va Nishopur kabi shaharlarda hanafiylik asosida fatvolar chiqaruvchi mashhur olimlar faoliyat yuritgan. Somoniylar davlati o‘zining huquqiy siyosatini uch asosiy yo‘nalishda olib borgan:

1. Shariat asosidagi qonunlar tizimini takomillashtirish.
2. Jinoyat, fuqarolik, oilaviy va meros huquqi sohalarini tartibga solish.
3. Sud mustaqilligini va adolat tamoyillarini mustahkamlash.

Shariat manbalari va fiqh maktablari: Somoniylar davrida asosiy huquq manbalari quyidagilar edi:

1. Qur‘on — musulmon huquqining bosh manbai. Barcha hukmlar Qur‘onda keltirilgan adolat, halollik, inson huquqlari, mulk daxlsizligi tamoyillariga tayanardi.

2. Hadis — Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning so‘zlari va amallari asosida huquqiy me‘yorlar ishlab chiqilgan.

3. Ijmo‘ (olimlarning yakdil fikri) — fiqh olimlari tomonidan qabul qilingan umumiy qarorlar davlat qonunchiligida muhim rol o‘ynagan.

⁶ Homidiy H. Daholar davrasi. –T. O‘qituvchi. 2011. –B. 352.

4. Qiyos — yangi holatlarda o‘xshash huquqiy masalalarni tahlil qilish orqali qaror chiqarish usuli.⁷

Somoniylar davrida bu manbalar asosida fiqh maktablari faoliyat yuritgan, eng mashhuri Hanafiylik bo‘lib, u asosan Iroq va Movarounnahrda keng tarqalgan edi. Hanafiylik o‘zining qulayligi, adolatparvarligi va hayotiyli bilan ajralib turgan. U inson manfaatini, dalil-isbot va shaxs huquqini himoya qilishni ustuvor bilgan.

Dunyoviy huquqiy me‘yorlar: Somoniylar faqat diniy qonunlarga emas, balki amaliy boshqaruv ehtiyojlaridan kelib chiqib, dunyoviy me‘yorlarni ham qo‘llashgan. Bunga amir farmonlari (amrlar), vazir qarorlari, bozor nizomlari, soliq tartiblari kirgan.⁸

Bu me‘yorlar shariatga zid bo‘lmagan holda ishlab chiqilgan. Masalan:

Soliq yig‘ish, bojxona, savdo-sotiq va yer egaligi bo‘yicha maxsus farmonlar joriy etilgan; Qishloqlarda suv taqsimoti, yer mojarolari va ijaraga oid nizolar maxsus nizomlar asosida hal etilgan; Sudlar mazkur me‘yorlarni shariat doirasida qo‘llashgan. Bu tizim “urf va odat huquqi” elementlarini ham o‘z ichiga olgan. Ba’zi hollarda shariatda bevosita ko‘rsatilmagan masalalar xalq urfi asosida hal etilgan. Shunday qilib, Somoniylar davlati huquqiy tizimi diniy va dunyoviy manbalarni uyg‘unlashtirgan murakkab, ammo adolatli tizimga aylangan.⁹

Jinoyat huquqi: Somoniylar davridagi jinoyat huquqi Qur‘on va hadis asosida shakllangan bo‘lib, jinoyatlar asosan uch toifaga bo‘lingan:

1. Hadd jinoyatlari – Qur‘onda qat’iy belgilangan jinoyatlar (o‘g‘rilik, zino, sharob ichish, tuhmat, qotillik va boshqalar).

2. Qisos va diyat ishlari – inson hayoti va tan jarohatiga oid jinoyatlar.

3. Ta’zir jinoyatlari – amir yoki qozi ixtiyorida bo‘lgan, jazosi sharoitga qarab belgilanadigan jinoyatlar.

Jazolar qat’iy, lekin adolatli bo‘lgan. Har qanday jazo shariat asosida isbot talab qilgan. Guvohlar, qasam yoki dalillar yetarli bo‘lmasa, sud jazo tayinlamagan. Qotillik holatida “qisos” yoki “diyat” qo‘llanilgan. Masalan, jabrlanuvchi oilasi jinoyatchini o‘ldirish o‘rniga tovon (diyat) olishni tanlashi mumkin edi. O‘g‘rilik uchun jazo faqat dalillar mutlaqo aniq bo‘lgandagina berilgan. Agar o‘g‘irlangan mol oz bo‘lsa yoki zarurat tufayli o‘g‘irlangan bo‘lsa, jazo yumshatilgan. Bu ham Hanafiy fiqhining insonparvarlik jihatini ko‘rsatadi.¹⁰

⁷ Boydedayev D. /Buxoro faxri –Ismoil Somoniy. Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari. 14-son. 28.05.2022

⁸ Эшов Б. Одилов А. Ўзбекистон тарихи. –Тошкент. 2014. Б. 489.

⁹ Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholar press, 2017. –Б. 93

¹⁰ Уватов У. Буюкюрталломалари. – Т: О‘zbekiston. 2020. Б. 426.

1. Наршахий А. Бухоро Тарихи. –Т.: Фан, 1996. –Б. 120.
2. Нейматов Н. Давлати Сомониён. –Ирфон. 1999. Б. 328.
3. Ибн ал-Асир. Ал –Камил фит тарих. –Т.: Цюрих, 2005. –Б. 604.
4. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –Т.: Sharq. 2010. Б.
5. Номидий Н. Daholar davrasi. –Т. О‘qituvchi. 2011. –Б. 352.
6. Boydedayev D. /Buxoro faxri –Ismoil Somoniy. Yangi O‘zbekistonning umidli yoshlari. 14-son. 28.05.2022
7. Эшов Б. Одилов А. Ўзбекистон тарихи. –Тошкент. 2014. Б. 489.
8. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholar press, 2017. –Б. 93.
9. Уватов У. Буюкюрталломалари. –Т: O‘zbekiston. 2020. Б. 426.